



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

O'ZBEKISTON MAHALLALARI UYUSHMASI TUZILDI



Toshkent shahrida "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirish" mavzusida ta'sis konferensiya bo'lib o'tdi.
Anjumanda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi T. Norboyeva, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, Respublika mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi raisining birinchi o'rinbosari G'. Mirzayev, vazirlik va idoralar rahbarlari, respublika hamkor tashkilotlar vakillari, shuningdek, hududlardan saylangan delegatlar ishtirok etdi.

Unda O'zbekiston mahallalari uyushmasini tuzish va uning hududiy bo'linmalarini tashkil etish, uyushma ustavi va ramzini, hududiy bo'linmalarining namunaviy nizomlarini tasdiqlash, uyushmaning nazorat-taftish komissiyasi raisi, a'zolarini saylash, shuningdek, uyushma va uning hududiy bo'linmalari hamda mahalla faollari oldida turgan ustuvor vazifalar to'g'risidagi masalalar muhokama qilindi.

Konferensiyada mahalla tizimidagi o'zgarishlar, uning jamiyat hayotidagi o'rni va obro'sini oshirish borasidagi tashabbuslar, "mahalla yetiligi"ning faoliyat yo'nalishlari xususida so'z bordi.

Qahramon Quronboyev O'zbekiston mahallalari uyushmasining raisi lavozimiga saylandi.

Bugungi kundagi eng dolzarb masala - "yashirin" iqtisodiyot.

Tahlillar xizmatlarda 140 trillion so'm, qurilishda 50 trillion, sanoatda 40 trillion so'mlik mahsulot "soya"da qolayotganini ko'rsatdi. Agar shularni joyiga qo'ysak, yalpi ichki mahsulotga 135 trillion so'm, budjetga 30 trillion so'm tushum qilsa bo'ladi...

"Yashirin" iqtisodiyot va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bilan 14 ta organ tarqoq shug'ullanmoqda, ularning faoliyatini muvofiqlashtiradigan yaxlit tizim yo'q.

Shavkat MIRZIYOYEV.

Viloyat hokimligi tashabbusi bilan Kattaqo'rg'on tumani-dagi Melixo'ja mahallasida "Obod xonadon - obod ko'cha - obod mahalla" mezonida qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Besh mingdan ortiq aholi istiqomat qilayotgan Melixo'ja mahallasi viloyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli og'ir aholi punktlari toifasiga kiritilgan. Hokimlik ishchi guruh tomonidan hududdagi to'rtta qishloqda mavjud muammolar aniqlandi. Jumladan, mavjud 38 ta ichki ko'chadan 30 tasi ta'mirga muhtoj. Uchta markaziy ko'chada 12 kilometr yo'l asfaltlanishi kerak. 35 kilometr yo'lga shag'al yotqizish talab etiladi. Elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichimlik suvi masalalari bo'yicha ham bir qator muammolar mavjud. Eski simyog'och va transformatorlarni almashtirish, ikkita suv minorasini ta'mirlash va ikkita yangisini qurish, shuningdek, 19 kilometrlik ichimlik suvi tarmog'i tortish zarur. Bu orqali 920 xonadonning uzoq yillik muammosiga yechim topiladi.

Viloyat hokimi mazkur mahallada bo'lib, ishchi guruh tomonidan olib borilgan o'rganish ishlarini tahlil qildi. Hududdagi ta'mir va tibbiyot muassasalari, aholi xonadonlari va yo'llar holatini ko'zdan kechirdi. E.Turdimov

MELIXO'JA AHOLISI TURMUSHI O'ZGARADI

103-maktabda mavjud sharoit bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etib, vaziyatni o'nglash yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi. Qolgan uchta maktabda ham amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilandi. Ta'lim muassasalarining kutubxonalariga 1000 tadan yangi kitoblar berildi va kitob fondi boyitilishi aytiladi.

E.Turdimov shu yerda hududda amalga oshiriladigan qurilish-obodonlashtirish ishlarini mutasaddi idoralar, viloyat tashkilotlari mas'ullari ishtirokida muhokama qildi.

Infratuzilma bilan bog'liq masalalarni hokimlik va tegishli tashkilotlar bajaradi, buning uchun mablag' ham ajratamiz, - dedi E.Turdimov. - Maktablar, maktabgacha ta'lim va tibbiyot muassasalarida qurilish-ta'mirlash ishlari olib boriladi. Lekin faqatgina shu bilan hudud obod bo'lib qolmaydi. Avvalo, aholining turmush tarzini o'zgartirish, madaniyatini oshirish lozim. Obodlik ko'ngildan, xonadondan boshlanadi. Har bir xonadonda yashash uchun

qulay sharoit yaratilishi, sog'lom turmush tarzi qaror topishi kerak. Buning uchun odamlar uyg'onishi zarur. "Qishloq sharoitida bo'laveradi", degan tushunchaga barham beramiz. Kerak bo'lsa, har bir oilaga kirib, ularni yaxshi yashashga, buning uchun harakat qilishga o'rgatamiz. Mahalladagi aksariyat tomorqalarda foydalanilmagan, qarovsiz holatda. Vaholanki, bu qishloq odamlarining asosiy daromad manbai. Odamlarga zarur vositalar, ekin urug'lari berish, tomorqalarda issiqxonalar qurish va kredit ajratish orqali ularni yerdan bir necha marta hosil olishga, shu orqali daromad qilishga o'rgatishimiz lozim.

Viloyat hokimi hududda aholining, xususan, yoshlarning sport bilan shug'ullanishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi va sayr qilishi uchun sharoit yaratishga ham e'tibor qaratib, mutasaddilar oldiga aniq vazifalar qo'ydi.



Bir jumlada

Bulung'ur tumani
sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi tomonidan "Bulung'ur dehqon bozori"da o'tkazilgan tadbirda tadbirkorlarga tegishli savdo do'konlarida 34 quti yaroqlik muddati ko'rsatilmagan qandolat hamda meva mahsulotlari iste'moldan olindi.

Jomboy tumanining
Polvonariq mahallasida viloyat prokurori tashabbusi bilan kutubxona tashkil etildi.

Narpay tumanining
Mang'it va Chaykal mahallalari hududida 15 kilometr elektr uzatuvchi kabellar tortilib, Salovat mahallasida 60 dona beton ustunlar o'rnatilmoqda.

Nurobodlik aka-uka Tilavovlar homiyligi
da tumanning Mehr va O'rtabo'z mahallalarining 1000 dan ziyod aholisi toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

Past Darg'om tumani hokimi V.Murodqobilov Xitoyning "Blue Carbon Technology INC" kompaniyasi bosh direktori Toni Chjao bilan qiymati 25 million dollarlik quyosh panellari va ularning ehtiyot qismlari ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish bo'yicha kelishib oldi.

Viloyatimizdagi ko'p qavatli uylarni isitish masalasi ha-nuzgacha ijobiy hal bo'lgani yo'q. Joriy yil yakunida Samarqand shahrida ishga tushirilishi ko'zda tutilgan RK-1 qozonxonasi haligacha aholi xonadonlariga issiqlik yetkazib berishni boshlamagan. Xo'sh, ko'p qavatli uylarda yashayotgan aholi sovuq kunlarda xonadonini qanday isityapti?

Samarqand shahridagi 1200 dan ziyod ko'p qavatli uylarning 21 tasi lokal qozonxonaga, 265 tasi ikki konturli hamda 923 tasi boshqa vositalar orqali isitilmoqda, - deydi viloyat qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi bo'lim boshlig'i B.Negmatov. - Yangi qurilayotgan barcha ko'p qavatli uylar faqat qozonxonalar yordamida markazlashgan holda isitishga mo'ljallanmoqda. Ya'ni, tabiiy gaz va elektr energiyani iqtisod qilishga yordam beruvchi kichik qozonxonalar quriladi.

Viloyatdagi barcha qozonxonalarini ta'mirlash, uskunalarini modernizatsiya

UY-JOYLARNI ISITISH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR QACHON HAL BO'LADI?

qilish maqsadida 390 million so'm mablag' ajratilgan edi.

Joriy yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida "Bulvar", "Registon", "Geofizika", "Lohutiy", "Dizvionnaya", "Bo'stonsaroy-34", "RK-3", "Motrid", "O'zbekiston" hamda Nurobod tumani qozonxonalarida rekonstruksiya va ta'mirlash ishlarini olib bordik, - deydi viloyat "Issiqlik manbai" DUK bosh muhandisi Jamoliddin Usmonov. - Buning uchun manzilli dasturlar asosida 3 milliard 464 million so'm mablag' ajratildi. Jumladan, Samarqand shahridagi 12-maktab qozonxonasiga 2 dona yangi qozon o'rnatildi. Shu bilan birgalikda, 10 ta qozonxonaga elektron suv va gaz hisoblagichlar o'rnatish orqali hisob-kitoblarda inson omili aralashuviga

chek qo'yildi. Shuningdek, ushbu manzilli dastur asosida Nurobod tumanida 10 mVtli zamonaviy energotejamkor qozon o'rnatilmoqda.

Prezidentimizning 2019-yil 2-dekabrda "Issiqlik ta'minoti tizimini takomillashtirish va issiqlik ta'minoti korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, Samarqand shahridagi RK-1 markaziy qozonxonasini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish loyihasini amalga oshirish ishlari davom etmoqda.

Samarqand shahridagi RK-1 markaziy qozonxonasida modernizatsiya ishlari "Elit Grand" MCHJ quruvchilari

tomonidan amalga oshirmoqda, - deydi J.Usmonov. - Qozonxonada yangi - 21 mVtli 3 ta avtomatik tizimli qozon o'rnatilgan. Ko'p qavatli uylarga 80 ta o'tkazish tarmoqlari, 95 ta issiqlik



tarqatish punkti hamda 15,5 kilometr issiqlik quvurlari tarmog'ini yangilash ishlari yakunlandi. Biryola 93 ta ko'p kvartirali uylar-

Bugunning gapi

ni isitish imkonini beruvchi qozonxonaga nima uchun yil yakunigacha ishga tushirilmadi, degan savolimizga bosh muhandis qozonxonaga 3 kilometr masofadan quvur tortib kelingani va hozirda ulash ishlari kechikayotganini aytdi.

Shuningdek, hozirgi kunda Samarqand shahri 54 mingdan ziyod aholi istiqomat qiluvchi Sug'diyona, Sartepa massivlari, shuningdek, kichik tumanda joylashgan 384 ta ko'p qavatli uyda 22620 ta aholi xonadoni, shuningdek, 22 ta ijtimoiy soha obyektingini isitish tizimi hamda issiq suv tarmoqlari ham rekonstruksiya qilinmoqda.

Quruvchilar tomonidan RK-2 markaziy qozonxonasida ham 3 ta qozon o'rnatilib, qo'shimcha 2 ta 30 mVt va 1 ta 40 mVtli qozonxonaga quriladi. Ko'p qavatli uylarda 460 ta issiqlik tarqatish punktlari o'rnatilib, 39,4 kilometr tarmoq tortiladi. Mazkur qozonxonaga 2024-yilning apreldan boshlab, aholi xonadonlariga issiq suv bera boshlaydi.

Dilmurod TO'XTAYEV.



602 GEKTAR YER O'ZBOSHIMCHALIK BILAN EGALLANGAN

O'tgan yilda kadastr agentligi viloyat boshqarmasi hamda tuman (shahar) bo'limlariga 1435 ta murojaat kelib tushgan. Ularning aksariyati ko'rib chiqilib, ijobiy hal etilgan va huquqiy maslahat, tushuntirish berilgan. Yer bilan bog'liq ayrim noqonuniy murojaatlarga rad javobi ayrim berilgan.

Respublikamizda yer resurslari cheklanganligi bois yerlarni noqonuniy o'zlashtirishga qarshi huquqiy choralar kuchaytirilayotganiga qaramay, ayrim uddaburonlar tomonidan hamon yerni o'z boshimchalik bilan egallash holatlari uchramoqda.

Birgina 2023-yilda yer munosabatlari bilan bog'liq qonunbuzilish holatlari yuzasidan o'tkazilgan o'rganishlarda 2223 holatda 602,3 gektar yer o'z boshimchalik bilan egallab olinganligi kuzatilgan. Aniqlangan holatlarni bartaraf etish yuzasidan berilgan tushuntirish va yozma ko'rsatmalar natijasida 269,4 gektar yer dastlabki holatiga qaytarilishi ta'minlangan.

Viloyat Matbuot uyida Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi va kadastr agentligi viloyat boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan matbuot anjumanida bu haqda ma'lumot berildi.

- Biroq belgilangan muddatlarda ixtiyoriy bartaraf etilmagan 1062 ta holatda 315,3 gektardagi yer qonunbuzilish holatlari yuzasidan sudga da'vo arizalari kiritildi, - deydi kadastr agentligi viloyat boshqarmasi bo'lim boshlig'i Hasan Shermatov. - O'z boshimchalik bilan yerni egallash bo'yicha prokuratura organlariga 219 holatda 28,9 gektar maydondagi qonunbuzilish holatlari to'g'risida ma'lumot taqdim etildi. Boshqarma va tuman, shahar bo'limlarimiz tomonidan 2023-yilda 3181 ta ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma rasmiylashtirilib, 3088 ta ma'muriy ish ko'rib chiqildi. Qo'llanilgan jarimalar summasi 26 milliard 132,6 million so'mni tashkil etadi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

Bu viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023-yilgi faoliyati sarhisobiga bag'ishlangan matbuot anjumanida ma'lum qilindi.

Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari, polkovnik Zokir Qayumovga ko'ra, bugungi kunda viloyat hududida ro'yxatga olingan avtomototransport vositalari soni 492743 tani tashkil etadi.

O'tgan yili viloyatda 1151 ta yo'l-transport hodisalari qayd etilgan. O'lim bilan bog'liq YTHlari 13 taga (278-265), tan jarohati olganlar soni 147 nafarga (1121-974) shuningdek, bolalar ishtirokidagi YTHlari soni 15 foizga (233-198), ularda halok bo'lganlar soni esa 40,4 foizga (52-31) kamaygan.

Tahlilarga ko'ra, sodir etilgan yo'l-transport hodisalarining 526 tasi piyodalarni urib yuborish, 364 tasi

Bir yilda **1151 ta "avariya"** va **265 TA O'LIM**



to'qnashuv, 93 tasi velosipedchini urib yuborish bilan bog'liq. Avariyaalarning ko'p qismi yo'llar gavjum vaqtga, ya'ni 08:00 dan 16:00 gacha (578 ta) to'g'ri keladi. Agar raqamlar hafta kunlariga taqsimlansa, YTHlari ko'proq dam olish kunlarida sodir bo'lishi ma'lum bo'lmoqda.

Boshqarma xodimlari tomonidan joylarda yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida olib borilgan tadbirlarda 289413 ta qoidabuzar to'xtatilib, shundan 4218 ta holatda haydovchining spirtli ichimlik iste'mol qilib vulga o'tirgani aniqlangan. Ayni jarayonda umumiy hisobda 232139

ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, huquqbuzarlardan 67 milliard 212 million so'm miqdorida jarima undirilgan.

Mas'ullarning bildirishicha, viloyat hududidan o'tuvchi xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarida "Atlas Internasional" kompaniyasiga tegishli tezlikni o'lchovchi moslamalar bilan jihozlangan 10 ta avtomashinadan foydalanilmoqda. Ular yordamida hisobot davrida 690592 ta qoidabuzarlik aniqlanib, 129 milliard 684 million so'm miqdorida jarima undirilgan. Natijada belgilangan tezlikni oshirish bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarini soni 19,4 foizga kamaygan.

Tadbirda jurnalistlar sohaga oid savollariga javob olishdi. Jumladan, joylarda yo'l belgilarini o'rnatish, haydovchi hamda piyodalarning yo'l harakati qoidalarini buzishiga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etish yuzasidan bildirilgan takliflar nazoratga olinib, o'rganib chiqilishi bildirildi.

Yo'ldagi madaniyatsizliklar

[Aks-sado](#)

ma'naviyatining zaifligidan

"Zarafshon" gazetasining 2023-yil 30-noyabrda 142-sonida chop etilgan "Yo'ldagi madaniyatsizlik" nomli maqolada bugungi kundagi hayotimizning o'ta muhim muammolaridan biri ko'tarilgan. Chunki yo'l harakati ishtirokchilari bo'lgan avtotransport vositalari haydovchilari va piyodalarning madaniyatsizligi - ular ma'naviyatining zaifligidan.

Ma'naviyatli inson, odob-axloq tarixiy udumlari-miz asosida shakllangan odam hech qachon yo'lda harakatlanayotganda qonunbuzarlik qilmaydi. Agar u haydovchi bo'lsa, avvalo, yo'l harakati qoidalariga qat'iy amal qiladi, svetoforning qizil chirog'ida o'tib ketmaydi, uni quvib o'tgan avtomashina haydovchisi bilan yo'l talashmaydi va tortishmaydi, avtomashinasi yo'lning harakatlanish qismida qoldirib ketmaydi, nos tuflamaydi, sigareta qoldig'i yoki bo'sh suv idishi-ni mashina derazasidan uloqtirmaydi.

Shuningdek, ma'naviyatli haydovchi yo'l chetida ketayotgan yoki bekatda turgan yo'lovchilarga loyqa suv sachratib ketmaydi, transport vositalarining harakatlanishi taqiqlangan yo'lakchalardan yurmaydi.

Piyodalarning yo'ldagi tartibbuzarliklari avtomobil haydovchilarinikidan qolishmaydi. Ular piyodalar uchun ajratilgan joylar bo'lmasa-da, o'z hayotlarini xavf ostida qoldirib, yo'lning istalgan qismidan o'tib ketaveradi. Achinarlisi, yo'l chetida ekilgan gullar va maysalarni bosib, toptab o'tadi. Obodonchilik xizmati xodimlari mehnatini mensimasdan, yashil maysalar ustiga nos tupuradi, sigareta qoldig'ini uloqtiradi, chaynab bo'lgan saqichini, qo'llaridagi ortiqcha qog'oz quti va boshqa chiqindilarni tashlab ketaveradi.

Shahar ko'chalarida yana bir madaniyatsizlik bor. Bu - svetoforlar atrofidagi tilanchilarning to'xtab turgan avtomashinalar qatorlarini oralab, haydovchilardan xayr-ehson so'rashi. Vaholanki, bunday xatti-harakatlar qonun bilan taqiqlangan. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 1883-moddasiga ko'ra, ("Tilanchilik qilish") aeroportlarda, vokzallarda, xiyobonlarda, istirohat bog'larida, bozorlarda va savdo majmualari hududlarida, shuningdek, ularga tutash hududlarda avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida, ko'chalarda, stadionlarda, bekatlarda, yo'llarning qatnov qismida, moddiy-madaniy meros obyektlari joylashgan hududlarda, jamoat transportida va jamoat joylarida pul, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa moddiy qimmatliklar berishni faol tarzda so'rab, tilanchilik bilan shug'ullanish bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdordagi jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Biroq qonunning ushbu taomilini hech kim qo'llamaypti. Qonunning mazkur qoidasi ijrosini ta'minlash ichki ishlar idoralari yuklatilgan. Afsuski, svetofor yonida, yo'lda avtotransport va piyodalar harakatlanishini tartibga solib turuvchi yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimi ham, shu hudud uchun mas'ul bo'lgan patrul-post xizmati xodimlari ham tilanchilarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini ko'rib tursalarda, e'tibor qilmaydilar.

Xo'sh, yo'ldagi ushbu madaniyatsizligu ma'naviyatsizlikni bartaraf etsa bo'ladi? Albatta, bo'ladi. Buning uchun birinchi navbatda ichki ishlar idoralari xodimlarining qonun ijrosi uchun mas'uliyatini oshirish zarur. Ana shundaygina yo'ldagi madaniyatsizlikka, ma'naviyatsizlikka barham berish mumkin.

Yo'ldosh SUYUNOV,
huquqshunos.

[Yoshlar minbari](#)

Kattaqo'rg'onlik YOSHLAR

Yerdan qanday
foydalanayapti?



Kattaqo'rg'on tumanida ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida ko'rilayotgan choralardan biri dehqonchilik qilish uchun yer ajratilayotganidir. 2022-yilda 1644 nafar yoshga E-auksion dasturi orqali 329 gektar yer ajratildi. Shu paytgacha ishsizlik muammosi qiyab kelayotgan yoshlar bu yer maydonlaridan umumli foydalanib, ro'zgo'origa mo'may daromad keltiryapti.

- Yoshlarimiz dehqonchilik qilishda qiyinchiliklarga duch kelmasliklari uchun tumani-mizning 1-, 2- va 3-sektor hududlarining qulay joylaridan yer maydonlari ajratildi, - deydi Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi rahbari Lazizbek Abduqahhorov. - 200 nafarga yaqin yoshlar o'zlar uchun ajratilgan 35 gektar yerdan umumli foydalanaypti. 1-sektor hududi asosan qulupnaychilikka ixtisoslashgan bo'lib, erta bahordan kech kuzgacha ko'ngildagidek hosil olinaypti.

- Menga 20 sotix yer ajratilgan, - deydi Tavoron mahallasida yashovchi Shahzod Rahmonov. - 10 sotixga qulupnay, qolganiga sabzavot mahsulotlari ekib, yaxshi daromad topayman. Birgina qulupnayning bahorigi hosildan 12 million so'm foyda ko'rdim. Oz bo'lsa ham kech kuzgacha hosil oldik. Xaridorlar shu yerning o'zidan kilogramga 40 ming so'mdan sotib olib ketdi. Qirov tushganicha hosil oldik.

Jonkel mahallasida yashovchi Ma'murjon Shodiqulovni 10 yildan beri ishsizlik muammosi qiyar edi.

- 2013-yilda kasb-hunar kollejni tugatganman, - deydi u. - Shundan beri muqim bir ishga joylasholmay yurgandim. Bu orada bir necha bor xorijiy davlatlarga borib ishlab kelishga to'g'ri keldi, ammo oson bo'lmaidi. O'tgan yili turmush o'rtog'im bilan birga "Yoshlar daftari"ga kiritildik. Mahalla bollari maslahati bilan auksionda ishtirok etib, g'olib bo'ldik. Ikkinchiga 40 sotix yer ajratildi. Bu yerda ota-bobolarimizdan dehqonchilik sirlarini o'rganganimiz - qulupnaychilik bilan shug'ullanishga qaror qildik. Birinchi hosildan 40 million so'm daromad qildik.



Yoshlar qulupnay yetishtirilayotgan maydonlardan kech kuz va qish oylarida ham daromad olishga harakat qilaypti. Ya'ni, o'tqazilgan qulupnay ko'chatlari oralarida, ariqlarda begona o'tlar o'rniga sarimsoq piyoz, ismaloq kabi turli ko'katlar urug'larini qadab, yaxshigina hosil olyapti.

To'liq SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

BU FAKTI!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida, parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuviga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 363,6 milliard so'mni tashkil etdi.

Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 098,7 milliard so'm, qo'y va echkilar 190,0 milliard so'm, otlar 67,3 milliard so'm hamda parrandalar 7,6 milliard so'mni tashkil qildi.

Nurobod tumanida jun va teri mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish orqali aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish, aholining innovatsion ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish mumkin.

Tuman hududining istiqbolida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish va xomashyo yetishtiruvchilarga nisbatan uni qayta ishlovchilar 2-3 barobar ko'p daromad olayotganligini hisobga olib, joylarda cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarini tashkil etish kerak. Ya'ni, ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishni bir korxonada yoki bir hudud miqyosida jamlash tuman hududining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Oddiy qilib aytganda, tumanda qo'ychilik klasterlarini tashkil etishga ustuvor ahamiyat berilishi zarur.

Xorijiy davlatlar tajribasidan ko'rinadiki, qo'y junini qayta ishlashni tashkil qilish biznesning eng qulay va kam xarajat sohalaridan hisoblanadi. Junni qayta ishlashda ishlab chiqarish binolariga ham, ishlovchi xodimlarga ham maxsus talablar qo'yilmaydi. Junni yuvib-tozalash nisbatan kam kapital qo'yilmalar talab qiladigan ishlab chiqarish hisoblanadi.

Tumandagi barcha mahallalarda qo'y-qo'zilar junini xarid qilishga mo'ljallangan qabul qilish punktlarini tashkil etish lozim. Jumladan, qo'y junini qayta ishladigan, yuvadigan, hidsizlantiradigan va navlarga ajratadigan uskunalarini xorijdan olib kelib, tumanda bir nechta fabrikalarni tashkil etish orqali jundan ip-kalava yigirishni yo'lga qo'yish mumkin. So'ngra jun ip-kalavadan issiq kiyimlar, gilam va gilam mahsulotlari to'qiydigan fabrikalar tashkil etish imkoniyati mavjud. Bunda, birinchi-

Nuroboddagi "xazina"ga qachon e'tibor qaratiladi?



dan, tumanning yaqin va olis hududlaridagi aholi doimiy ish va daromadga ega bo'ladi. Ikkinchidan, tumanda kichik ishlab chiqarish va oilaviy korxonalar tashkil etiladi. Uchinchidan, ishsizlar soni kamayadi. To'rtinchidan, "e'tiborsiz mahsulot" yarim tayyor va tayyor mahsulotga, yakunda esa valyutaga aylanadi.

QO'Y QUMALOG'IDAN O'G'IT SIFATIDA FOYDALANISH MUMKIN

Bugungi kunda tumanda qo'yilar saqlanadigan otlarda juda katta miqdorda tabiiy o'g'it (qumaloq) hosil bo'lmoqda. Joylarda aholi va chorvadorlar o'rtasida qo'yilarning qumalog'ini to'plab, uni maxsus o'ralarda "Kaliforniya chuvalchangi" orqali chiritib, tabiiy o'g'it ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkoniyati mavjud. Natijada

chorvadorlar va aholi mazkur tabiiy o'g'itni fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklariga sotish orqali doimiy daromad manbaiga ega bo'ladi, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar esa unumdor yerga aylanadi.

Qo'y terisini qayta ishlash ham yana bir imkoniyat. Tumanda har kuni yuzlab qo'y so'yiladi. Joylarda aholi va chorvadorlar tomonidan so'yilgan qo'yilarning terisini xarid qiladigan o'nlab punktlarni tashkil etish mumkin. So'ngra terini qayta ishlaydigan, oshlaydigan, cho'zadigan va turli navlarga ajratadigan zavodlarni tashkil etsa bo'ladi. Buning uchun sohaga investitsiya jalb etib, xorijdan kerakli uskunalarini keltirish talab etiladi. Teridan ichki ehtiyojlar va eksport uchun turli teri mahsulotlarini ishlab chiqarish mumkin. Mazkur ishlarning amalga oshirilishi natijasida "mahalliy xomashyo - milliy mahsulot" ko'rinishiga keladi va aholi turmush darajasining oshishi, ishsizlar sonining kamayishiga yordam beradi.

Fikrimcha, iqtisodiy salohiyati va ko'rsatkichlari past bo'lgan hududlarda kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'sishini ta'minlash mumkin. Hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ilmiy-texnik salohiyati va mavjud resurslarini hisobga olgan holda innovatsion rivojlanishning hududiy dasturlarini ishlab chiqish, milliy brend mahsulotlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish yoshlarda innovatsion tadbirkorlik va rationalizatorlik qobiliyatini shakllantirish lozim.

Bekzod ABDUMANNONOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
menejment kafedrasida assistent-stajyori.

AYDARKO'L:

OROL QISMATI TAKRORLANISHI MUMKIN

So'nggi o'n yillikda atrof-muhitga salbiy ta'siri tobora yaqqol namoyon bo'lib borayotgan iqlim o'zgarishi oqibatlari mintaqamizda ham turli shaklda o'z in'ikosini ko'rsatmoqda. O'rtacha haroratning ko'tarilishi, suv tanqisligi, qurg'oqchilik, yashil maydonlarning kamayishi, sho'rlanish, yaylov yerlarining degradatsiyasi, cho'llanishga moyil hududlarning ortishi va boshqa oqibatlar bilan kuzatilayotgan salbiy holatlar ekologik vaziyat nihoyatda jiddiy ekanligidan darak bermoqda!

Ko'llar tizimida suv hajmining tobora kamayishi suvning minerallashtirish darajasini oshirib, baliq resurslarining kamayishiga, suv chekingan hududlarning tuz bilan qoplangan maydonlarning kengayishiga, qum-chang to'zonlarini vujudga kelishi bilan bog'liq ayrim ekologik ofat ko'rinishlari namoyon bo'lmoqda. Xususan, ko'llar tizimining suv hajmi 1994-2000-yillarda 44 milliard metr kub bo'lib, hududning umumiy maydoni 350 ming gektarga, uzunligi 250 kilometr ga yetgan bo'lsa, "Chordara" suv omboridan 2013-2021-yillarda ko'llar tizimiga suv tashlanmaganligi bois, suvning tabiiy kamayishi yiliga o'rtacha 3,8 milliard metr kubni tashkil etadi. Natijada ko'llar tizimi maydoni 509 kilometr kvadratga, suv miqdori 9,8 milliard metr kubga kamayib, hozirda 32,3 milliard metr kubni tashkil qilmoqda. Analitik nazorat laboratoriyalari tomonidan Aydar-ko'l va Tuzkon ko'llaridagi suvning minerallashtirish darajasi monitoring qilinmoqda.

miqdori 3,1 foizni tashkil qilib, o'ta sho'rxok ekanligi aniqlangan.

Ko'llar tizimining suvdan bo'shagan maydonlarida tuproq kuchli sho'rlangan bo'lganligi sababli tuz deflyatsiyasi vaqtida magniy sulfat va natriy xlorid tuzlari Jizzax viloyatining g'arbiy hududlaridagi sug'oriladigan yerlarga qadar yetib borganligi, ularning unumdorligiga salbiy ta'sir qilgani kuzatilgan.

Ko'llar tizimida suv sathining pasayib ketishi esa ushbu salbiy holatning yanada kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida ekologik holatni yaxshilash, hududda hayvonot va o'simlik dunyosi muhofazasini kuchaytirish, aholining baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, turizm salohiyatini oshirish maqsadida Vazirlar mahkamasiga tomonidan 2022-yil 26-martda "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi boshqaruvi tashkil etishining qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Mazkur qaror bilan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimidan foydalanishni tubdan takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Ko'llar tizimining "Arnasoy" suv ombori hududida baliq ovlashga vaqtinchalik moratoriy e'lon qilinib, suv ombori hududida baliq ovlash qat'iyati taqiqlandi, barcha ijarachi baliqchilik xo'jaliklari tegishli tartibda ogohlantirilib, ular bilan tuzilgan ijara shartnomalari bekor qilindi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi akvatoriyasida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining hududiy bo'linmalaridan 25 ta xodim birlashtirilib, 6 ta patrul guruhi tashkil etildi. Inspektorlar tomonidan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanayotgan, suv havzalarida noqonuniy ravishda baliq ovlayotgan, sotayotgan, sotib olayotgan, qayta ishlab chiqarayotgan shaxslar aniqlanib, ularga nisbatan javobgarlik choralari ko'rib borilmoqda.

Bundan tashqari, vazirlik tarkibidagi O'rmon xo'jaligi agentligi tomonidan "Yashil makon" umum-milliy loyihasi doirasida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi atrofida 103 gektar yer maydonida jami 60 mingta daraxt ko'chatlari ekilib, ularning parvarishi borasida ishlar davom ettirilmoqda.

Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan Qozog'iston Respublikasi hukumati bilan muzokaralar olib borilishi natijasida Chordara suv omboridan qo'shimcha 560 million metr kub hajmda suv tashlanishiga erishildi, shuningdek, suv sathini bir maromda ushlab turish bo'yicha botiometrik izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida kuzatilayotgan ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida investitsiyaviy loyihalar amalga oshirilgan. Masalan, 2018-2020-yillarda Arnasoy suv omborini Janubiy Mirzacho'l kanali orqali to'yintiruvchi kanallarni rekonstruksiya qilish loyihasi doirasida 25 milliard so'mlik qurilish va rekonstruksiya ishlari yakunlanib, obyekt foydalanishga topshirilgan.

Tahlillarga ko'ra, ko'llar tizimining Tuzkon hududidan uning quyi qismi bo'lgan Konimex tumanidagi Boymurod posyolkasi bo'ylab suvning minerallashtirish darajasi birmuncha ortib borib, jami tuz miqdori 12,08 g/l dan 14,12 g/l gachani tashkil qilgan.

Ma'lumot o'rnida dunyo okeanining o'rtacha sho'rlanish darajasi 35 foiz (promille) yoki 35 g/l (1 promille - mingdan bir ulushi, 1/10 foizi, ya'ni, 1 kilogramm dengiz suvida erigan qattiq moddalarning gramdagi miqdori) tashkil qiladi.

Kaspiy dengizining o'rta qismida suvning sho'rligi 13-15 foiz, shimoliy qismi (Volga deltasi)da 0,2-2,0 foizdan dengizning chuqur qismida 9-11 foizgacha o'zgarib turadi, Orol dengizida suvning sho'rligi 116-211 foizni tashkil qiladi.

Isroildagi "O'lik dengiz"i yerdagi eng sho'r suv omborlaridan biri bo'lib, sho'rligi 300-310 foiz tashkil etadi.

O'zgidromet xizmati agentligi tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari doirasida sun'iy yo'lidosh tasvirlarida ko'llar tizimining qurigan qismning 19,5 foiz maydonida o'ta sho'rlanganlik dog'lari borligi aniqlangan. Ko'llar tizimining qurigan qismida o'rtacha 5-7 tonna kilometr kvadrat tuz mavjud bo'lib, ularning ifloslantiruvchi asosiy tarkibiy qismi sulfat, xlorid, natriy va magniy tuzlaridan iborat ekan.

Tuproq namunalari tahlillariga ko'ra, o'tloqi va sho'rhol tuproqlar tarkibida tuzlarning quruq qoldiq

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Xujamqulova Salimaga (2018-yil 18-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Achilov Uktamga (2014-yil 9-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Bazarov Rasulberdiga (2023-yil 24-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk

uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazidan 2013-yilda Ashurova Zamira Salimovna nomiga berilgan ro'yxat raqami 442, 023172 raqamli qayta tayyorlov kursi-

dan o'tilganligi to'g'risidagi diplom yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qoshidagi Toshkent oliy maktabidan 1992-yilda Karimov Aslam Kenjayevich nomiga berilgan ro'yxat raqami 9226, FV 522051 raqamli diplom va uning ilovasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Abdug'aniev Ulug'bek Abduhofizovichning fuqarolik pasporti (AA 4627596, 11.03.2014 yilda Samarqand viloyati

Risqul SIDDIQOV, Oliy Majlis Senati Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisining o'rinbosari.

Jurnalist va blogerlar tibbiy ko'rikdan o'tdi

Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi hamda axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi tomonidan barcha tuman va shaharlarda ommaviy axborot vositalari vakillari, axborot xizmatlari xodimlari va blogerlar uchun bepul tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Jumladan, Samarqand shahar 2-oilaviy poliklinikada viloyat televideniyesi va radiosi, gazetalar xodimlari, axborot xizmatlari mas'ullari, blogerlar, internet jurnalistlar ko'rikdan o'tdi.

- Viloyatimizda ijod qilayotgan, shu sohada faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun bu kabi tadbirlarni tashkil etish an'anaga aylanganida, - deydi viloyat teleradiokompaniyasi xodimi Izzat Tillayev. - Kasalliklarni erta aniqlash va davolashda tibbiy ko'rik muhim ahamiyatga ega. Ko'rik davomida o'ndan ortiq yo'nalish bo'yicha shifokorlardan maslahat va tavsiyalar oldik.

Tekshiruv davomida 200 nafardan ziyod xodimning salomatligi nazoratdan o'tkazildi.

O'tgan

davr mobaynida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ustav kapitaliga 30 million dollar investitsiya kiritish sharti bilan "Profish layn" MCHJ ga ishonchli boshqaruvga berilib, hududida intensiv baliq yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini, shu jumladan, qafas usulini joriy etish, lichinka ishlab chiqarish bo'yicha yangi inkubatsiya sexlarini tashkil etish, yetishtirilgan baliqlarni shu yerning o'zida qayta ishlab korxonalarini tashkil etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, ko'llar tizimiga tutash yerlarda turizm obyektlarini ko'paytirish, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida mutaxassislardan iborat ishchi guruh tashkil etilib, ko'llar tizimi va unga quyiluvchi suv havzalarning gidrokimyoviy tarkibi va sanitariya-gigiyenik jihatlari o'rganildi.

Tahlillar uchun Jizzax va Navoiy viloyati hududining markaziy va g'arbiy qismidan suv namunalari olinib, bir necha maxsus laboratoriyalar tomonidan tahlil qilindi.

Tahlillar natijalari bo'yicha hududlarda ekologik, suv-plyaj, safari va boshqa turizm obyektlarini tashkil qilish bo'yicha Aydar-Arnasoy ko'llar tizimidan foydalanish yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa va takliflar yuborildi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimini saqlab qolishda quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- Sirdaryo havzasida suv resurslari hajmi kamayishi ehtimolini hisobga olgan holda Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining qisqa va uzoq muddatli istiqbolida suv hajmi va ekologik holatini modellashtirish va amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar yuzasidan ilmiy-tadqiqot loyhasini amalga oshirish;

- Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ko'llar tizimiga qo'shimcha suv tashlash uchun Sirdaryo viloyati hududidan o'tuvchi "Do'stlik kanalidan "Sardoba" kollektori orqali suv beruvchi kanal qurilishini yakuniyga yetkazish;

- Qozog'istonning Chordara suv omboridan suv ko'p bo'lgan yillarda yillik o'rtacha 1,5 milliard metr kub, shundan Aydarko'lga 1 milliard metr kub va Arnasoyga 0,5 milliard metr kub miqdoridagi doimiy suv tashlash masalasini ikkala respublika hukumatlari darajasida kelishish;

- ko'llar tizimidagi kichik suv havzalari reyestrini shakllantirish va Orolbo'yida ko'kalamzorlashtirish bo'yicha tajriba asosida ko'llar tizimi atrofida "yashil belbog" va "yashil zonalar" yaratish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

- tuzli changlar hosil bo'lishi, ularning ekin maydonlari va inson salomatligiga salbiy ta'sirini kamaytirish, sho'rlanish, degradatsiyaning oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

UY SOTILADI!

Samarqand shahri Muazzamxon kochasi, 6-uy manzilida joylashgan ikki qavatli yashash uyi (yog'ochdan yasalgan mebellari bilan) sotiladi.

Mo'ljal: "Makro-Karzinka" supermarket.

Murojaat uchun telefon: +99894-881-52-18.

KAMBAG'ALLIK EMAS, UNGA KO'NIKIB YASHASH AYB

Yaxshigul XIDIROVA, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Inson shaxs bo'lib shakllana boshlagandan o'zligini, oq-qorani, yaxshi-yomonni, farovonlik-qashshoqlikni his eta boshlaydi. Hayot yo'llarida toblanib, o'z oilasida, Vatanida quyoshni kutib, kech kirgach, bir kunlik ishlarini sarhisob qiladi.



Alloh bergan rizqiga mehnati orqali erishadi. Quyosh rasmini ko'z oldingizga keltiring va uning har bir nuri ustiga insonga xos fazilatlarini yozsak, ilmi, tarbiyali, vijdonli, sadoqatli, mehnatsevar, shirinso'z, vatanparvar, bolajon, oqibatli va hokazo. Bu kabi so'zlarni yozib adog'iga yetolmaymiz. Bu fazilatlar mujassam kishilarni ma'naviyatli kishilar deymiz. Hayotni uqgan, axloqiy, ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan, bilimli, tadbirkor har bir ishga imkon topa oladi. Sog'lik, xotirjamlikning qadriga yetadi, xudbinlik, ochko'zlik, baxillik, boqimandalik kabi illatlardan yiroq bo'ladi. Davlatimiz aholini kambag'allikdan chiqarish, kam ta'minlangan oilalarga ko'mak berishga keyingi paytda katta e'tibor qaratyapti. Ular o'z mehnati bilan ro'zg'orini uddalab ketishi uchun ehtiyojmandlarga turli asbob-anjomlar bepul berilyapti. Afsuski, ba'zida tikuv mashinasini olib, uni sotib yuborganlar haqida eshitamiz. Fermer xo'jaligi raisiga bir ayol o'shqirib bordi: "Menga 50 kilo bug'doy berasan! "Ayollar daftari"da turaman!" Lekin bu ayol fermer dalasiga chiqib, unga yordam berdimi, bir dona o't yuldimi? O'zini kam ta'minlanganlardan

sanaydiganlarning ba'zilar haqini ajratib oluvchi mohirlardan emish. "Menga yordam bering, besh nafar farzandim bor, 80 yoshli qaynonam kasal", deb mahalladan oyog'i uzilmaydi. Buni ham qo'yavering, gaz, elektr idoralarida ham o'sha haqini undirgich ayol. O'tning qashqasiday hammaga tanilib qolgan. Keyin bilishsa, hecham muhojir emas, uyida 20 dan ortiq qo'y-echki, o'ndan ortiq qoramollari bor. Eri mol bozorda dallollik qiladi. Undan nega bunday qilishining sababini so'rasam: "Odamlar sen haqingni talab qila olasan, deb tezlaydi", deydi. Qishlog'imizda har bir oila o'z tomorqasiga ega, ishlayman desa, sharoit bor. Duoba qishlog'ida yashovchi Hikmatulla Rasulov tomorqasidan har yili yuz million so'mdan ortiq daromad topishini aytadi. Issiqxonasidan bir yilda besh marotaba hosil olarkan. - O'n yildan oshdi, 20 sotix tomorqamizda avval ozroq, keyin 6 metrlik sakkizta issiqxona tashkil etdik, - deydi u. - O'tgan yil sentabr boshida ochiq yerga karam ko'chati o'tqazgandim, plyonka ostiga esa salatpob "Aysberg" navli karam ekkandim. Hozi ularni sotuvga chiqaryapman. Salat bargi, rediska kabi sabzavotlar dasturxonaga ko'rk, qolaversa, inson uchun foydali. Bu ishlarini ayolim Oysulub bilan birgalikda bajaramiz. Shu yumushlar ortidan keladigan daromad orqali qizimizni turmushga uzatdik. Bir o'g'lim Toshkent iqtisodiyot universiteti, yana biri Navoiy davlat pedagogika institutida o'qiydi. Asli kasbim o'qituvchi, 2-kasb-hunar maktabida ishlab chiqarish ustasi bo'lib ishlaganman, tajribalarimni o'z tomorqamda davom ettirdim. Tabiiyki, faqat tomorqa bilan cheklanib qolmaymiz. O'g'lim 7-sinfda payti uch dona tovuq olib kelib berdim. Qani, ko'paytirgunchi,

deb o'rgatib turdim. Kelgusi yili 13 taga yetdi. Keyin tuxum va go'shti tez tayyor bo'ladigan tovuqlardan boqdik. Tovuqning bir yillik daromadini yig'ib, farzandlarimga yuzlandim: "Bu mablag'ni nima qilamiz?" Kichik o'g'lim uni uchga bo'lishni tavsiya qildi. "Bir qismiga tovuqlarga yem olamiz, bir qismini ro'zg'orga sarflaymiz. Yana bir qismiga tovuq sotib olamiz", dedi. Uning aytganini qildik va bugunga kelib, tovuq va qoramollarmiz ko'payib qoldi. Hikmatilla Rasulov "Namunali tomorqachi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. "Sodiq xizmatlari uchun" medaliga sazovor bo'ldi. Shu qishloq kayvonisi - Eshmamat bobo davralarda bir gapni ko'p takrorlaydi. "Kambag'al nimaga kambag'al? Chunki ishning ko'zini bilmaydi, dangasa". Rostdan ham hozir qishloqda har uch xonadonning ikkitasi non yopmay qo'ygan. O'tin yo'q demang, fermerning g'o'zapoyasi qishgacha dalada yotadi, ba'zida terib oladigan odam yo'q. Vaqti yo'q, deb ham aytolmaymiz, ayollar soatlab ko'chada gap sotib o'tiradi. Tandir-o'choqlarimiz uyning fayzi, barakasi bo'lishi barobarida oiladagi iqtisodiy holatga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi. Kambag'allik ayb emas, kambag'allikka ko'nikish ayb, deydi xalqimiz. Aktrisalarning mashhaqqati nimada? Sirdan qaraganda, rol ijro etish osondek tuyuladi. Ammo aktyorlikning o'ziga xos mezonlari bor, uni o'zlashtirganlar sahna orqali yuksaklikka ko'tariladi. Bu - bor gap, haqqoniy fikr. Sahna bilan hayotini bog'lagan mashhur san'atkorlar ana shu talablarga moslashgan, o'z "men"ini unutib, boshqa olamda "yashashgan". Ta'bir joiz bo'lsa, Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrida uzoq yillar mehnat qilgan Ra'no Mustafoyevani ham ana shunday fidoyi aktrisalar safiga qo'shish mumkin. Paxtachining Mest qishlog'ida

Talabalik - oltin davr, yoshlikning eng jo'shqin va qaynoq fasli. Barcha kursdoshlari kabi Ra'no institut doirasida o'tkaziladigan tadbirlarda dam qo'shiq kuylar, dam she'r aytar, dam monologni qoyillatardi. Bunga faqat o'quvchilik yillarida hosil qilgan malakasi emas, balki Paxtachidagi "Oq oltin" badiiy jamoasida ma'lum muddat ishlagan ham ijobiy ta'sir ko'rsatgandir. Qalbi orzu-istak bilan limmo-lim yosh qiz ba'zan boshlovchi bo'lar, goho yakkaxon bo'lib sahnaga chiqar, dam badiiy guruh tarkibida maqom qo'shiqlarini ijro etardi. Uning ovozi sayqallandi, aktrisalik mahorati shakllandi, sahnada o'zini tutish malakasi hosil bo'ldi.



"TOHIR VA ZUHRA" da YULDUZ, "LAYLI VA MAJNUN" da LAYLIning onasi

O'ZBEKISTONDA XIZMAT KO'RSATGAN ARTIST RA'NO MUSTAFOYEVA HAQIDA SO'Z

olmadi. Ra'no maktabni tamomlagan 1981-yildayoq Toshkent teatr va rassomchilik san'ati instituti talabalariga qabul qilindi. Bir paytlar O'zbekiston televideniyesi orqali "Nazm va navo" ko'rsatuvini namoyish etilardi. Institut professor-o'qituvchilarining nazariga tushib qolgan talaba qizga Nodirabegim va Uvaysiy qiyofasini gavdalantirish topshirildi. Katta ishonchni oqlash uchun ming "o'lib"-ming "tirildi". Shoiralar libosini kiyish, g'azallarini do'ndirib o'qish talaba qizdan iroda va qat'iyat talab qildi. U buning uddasidan chiqdi. "Sahna nutqi" kursi bo'yicha Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan ko'rik-tanlov kechagidek ko'z o'ngida. O'zga diyor, o'zga yurt, ular singari qanchalab talabalar bellashadigan tadbir. "Qozonida borlarniki cho'michga chiqdi". Toshkent teatr va rassomchilik san'ati instituti vakilasi Ra'no Mustafoyeva sahna nutqi bo'yicha o'zlashtirganlarini namoyish etib, o'zbekistonliklarning yuzini yorug' qildi, unga ikkinchi o'rin nasib etdi. Mulla To'ychi Toshmuhammedov nomidagi Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrida bir guruh diplomli yosh aktyorlar iliq qarshi olindi. Kelajak yoshlariniki, marhamat, ishlasin, ijod qilsin, shart-sharoit va imkoniyatlardan foydalansin. Bahonaga o'rin yo'q. Teatrdan ijodiy muhit yaxshi bo'lsa-da, yosh mutaxassislarimiz bu dargohda o'zining ma'naviyatini o'zlashtirishni ayrim ota-onalar xohlashmas edi. Institut rektori Tolib Saidboevning ota-onalar bilan yakkama-yakka suhbatlashuvi natijasida qashqadaryolik bitiruvchi yoshlardan bir guruhni ishga qabul qilindi. Bir yil ichida teatr muhitiga ancha moslashib olgan yosh aktrisa o'z jufтини topdi. U aktyor Bahodir Mustafoyev bilan oila qurdi. Oila, nikoh - ilohiy tushuncha. Er-xotin bir-biriga suyanich, tirgak. Bitta sohada ishlashi tufayli Ra'no erini, eri Ra'noni hech qanday e'tirozsiz tushunar, shubha-gumonga umuman o'rin qolmasdi. Teatr shunday mas-kanki, ba'zan oilaviy masalalar ikkinchi darajaga tushib qoladi. Repetitsiya ustiga repetitsiya. Emizikli bolasi bo'lsa ham aktrisa go'dagini kimgadir qoldirishga majbur edi. Axir, sahnada uning rolini kim ijro etadi? Bunday holat Ra'no Mustafoyeva faoliyatida ham doimiy kuzatilgan. Ko'p hollarda farzandlarini ota uyiga tashlab kelar, onasi rahmatli parvarish qilardi. Nachora, chidaganga chiqqan sahnani, aktrisalikni! To'rt farzandining otasi, u bilan yelkadosh va hamnafas bo'lgan juftu haloli Bahodir Mustafoyevni 45 yoshida tuproqqa qo'ydi. O'lim so'rab kelmas ekan, yosh-qari deb "siylamas" ekan. Allohning azmu irodasi... Ra'no Mustafoyeva o'z umrining o'tgan yillarini dam mamnun, dam mahzun bo'lib eslaydi. Hayot unga ko'p narsalarni tortiq qildi, ammo armonlari ham yetarli. Muhimi, taqdirlardan ming bora rozi. Nega deysizmi? ...2016-yilda Qarshi shahridagi amfiteatrdan mustaqillik bayramiga tayyor-garlik avjiga chiqqan kunlar. Baxtsiz hodisa tufayli Ra'no qizi Sitora, nevarasi va kuyoviga qarovchi bo'lib, ularni parvarishlash bilan band. Kutilmagan qo'ng'iroqdan shoshib qoldi: "Tabriklaymiz. Bu sizning halol mehnatingizga berilgan unvon!". Ra'no daf'atan anglamadi. Qanaqa mukofot? Kim taqdirlangan?

Internet o'rniga... mehrimiz bormi?

Eh, nega bunchalik o'rganib qoldik telefon degan matoh va "gap bozori"ga. Ertalab ko'zimizni uyqudan ochganimizdan unga yopishamiz, unga intilamiz, mehrimiz - uniki. Nahotki, u shunchalik zo'r hukmron? Yomoni shundaki, ba'zan bizni chalg'itayotganligini bilsak-da, unga moyillikdan voz kechmaymiz. Yaqinda avtobusda borayotganimizda go'daklardan biri bezovta bo'lib yig'lay boshladi. Onasi chiroyli so'z bilan ovutish o'rniga qo'lga telefonni berdi. Uyda ham shu holat. Bolaning qo'lga telefonni berib, ovutgan bo'lamiz, bizga xalaqit bermasa bas, deymiz. Lekin u nimadan ovunaypti, shuurini nima bilan boyityapti, bu bilan hech kimning ishi yo'q. Aytgunchi, internetda ko'rsatilayotgan axloqsiz yoki urush jarayonidagi jaholatli lavhalar, qonlar-u, o'liklar-u avariyalari bizni tarbiyalaydi deb o'ylaysizmi? Aksincha, unga ko'zimiz o'rganib qolmayaptimi? Vaholanki, bunday holatni bolalar, o'spirinlar, yigitlar, qizlar juda tez qabul qilib oladi. Shuning uchun ham men ijtimoiy tarmoqlardagi bunday kanallarga deyarli kirmayman, bolalarimni ham asrayman. Bu tarmoqdan faqat ehtiyojimga mos materiallarni, manbalarni qidiraman. Sal bo'sh vaqt topsam, surat chizaman, o'g'il-qizlarimga ham shuni o'rgatayapman. Negaki, bu ijod odamni go'zallikdan zavqlanishga o'rgatadi. Keyin sport bilan shug'ullanamiz, bolalarimni to'garakka berganman. Iloji boricha ular bilan oilada ko'proq suhbatlashishga, ilmning qadrini isbotlashga urinaman. Darvoqe, bolalarini telefon bilan ovutgan ona birorta she'r yoddan bilmirkan? U G'afur G'ulom, Quddus Muhammadiy, Anvar Obidjon, Orif To'xtash kabi bolalar shoirilari kimligini bilmirkan? Yoki o'zi birorta o'zbek xalq ertaklarini o'qiganmikan? Bu savollar bugun butun jamiyat uchun og'riq bo'lib tuyulmoqda. Bu savollarga javob topmagan sayin o'zimni tubsiz gunohlar qa'rida ko'raveraman.



O'ylob o'yimga yetolmayman. Lekin fikri ojizimcha, bizdan mehr, ibrat ololmagan bola o'zga axborotga juda moyil keladi. Oilada olinmagan tarbiyani hech qayerda olib bo'lmaydi. Fe'li, turmush tarzi shakllangan odamlarni tarbiyalash nihoyatda mushkul, ehtimol mumkin emasdirl. Shu sababli ham ijtimoiy tarmoqlarda hali-hamon o'jarlar, shuhratparastlar, go'fillar bor. Ular bilan bahslashish uchun o'zingizni ular darajasiga qo'yishga majbursiz. Ular darajasiga tushganingizdan keyin esa ularning sizni yengishi ham tabiiy. Shukrlar bo'lsinki, bizning ijtimoiy tarmog'imiz qadimdan qolgan va butun dunyoga ikki marta renessansning qudratini ko'rsata olgan. Bu tarmoqning simlari bugun biz qo'l tegizmagani manbalarda, kitoblarda, dostonu go'shiqlarda zang bosib yotibdi. Men ana shu zanglarni tozalashga urinaman. Imom al-Buxoriy, az-Zamaxshariy, Termiziyular kitoblarini o'qiganda hali nechog'lik nodonligimni tushunib yetaman, qalbimni, shuurimni to'ldirib ma'naviy oziq olaman. Ko'zimga dunyo hikmat bo'lib tuyuladi. Biroq shundoq ko'chaga chiqsam, ishga borsam, yana telefon "kovlagan", ijtimoiy tarmoqdagi fisqu fasodlar ta'sirida fikri qotib ketgan gumrohlarga duch kelaman, dilim og'riydi, qattiq og'riydi. Albatta, zamonaviy dunyoda, rivojlanayotgan davrda hech kim ortda qolishni istamaydi. Lekin har qanday taraqqiyotga ham tarbiyasiz, ilmsiz erishib bo'lmaydi. Nazarimda aynan ana shu haqiqatni aytadiganlar yetishmayapti. Qaydasiz, aziz va fidoyi ziyolilar? Men sizning yoningizda bo'lishni istayman. Gulchiroy ABDULLAYEVA, Paxtachi tumani.

tug'ilgan Ra'no maktab yillarini yaxshi eslaydi. 24-umumta'lim maktabida o'quvchilik davrini boshdan kechirayotgan qizaloqni ko'pincha televizorda ko'rsatiladigan spektakllar ko'ziga ohanrabodek tortardi. Aktrisalarning dam kulib, dam yig'lab, rol ijro etishi uni mutaassir qildi. Bir kuni "Nurxon" spektakli namoyish etilganida, u Nurxon obrazini o'ynagan taniqli aktrisa Naïma Po'latovaning qo'ng'iroqdek ovozigacha mahliyo bo'lib qolgan. U ham shunaqa aktrisa bo'lsa, qani edi. Orzuga ayb yo'q. Juda yaxshi eslaydi, spektakl kadrilari ko'z o'ngida qolgani uchun boshiga do'ppi kiyib, o'zicha Nurxon rolini ijro etgan, bilganicha xirgoyi qilgan. Maktabni a'lo baholarga tamomlagan o'smir qizning ahdi qat'iy qilishgan: "Men aktrisa bo'lishim kerak!". Uning "temir" qarorini hech kim o'zgartira

18-YANVAR
Nurali XOLMONOV - (1960-2022). Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor.
20-YANVAR
Xurshid DAVRON - 1952-yilda Samarqand tumanidagi Chordara qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri. "Do'stlik" ordeni sohibi.
Adham HAYITOV - (1951-2020) Urgut tumanida tug'ilgan. Jurnalist, "Shuhrat" medali sohibi.
21-YANVAR
Shuxrat ABDULLALIKOV - 1970-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Teatr rassomi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV
Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 296 nusxada chop etildi. Buyurtma 33. Hajmi 2 bosma tabqa, bichimi A-2
Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.
QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.
«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonangiz manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.
Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: T.SIDDIQOV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.
Saytimga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009
Sotuvda narxi kelishilgan holda

